



UCHINCHI RENESSANS VA INSON KAPITALI: O'ZARO BOG'LIQLIKNING FALSAFIY TAHLILI

O'ljayev Diyorbek Nurilla o'g'li

Turizm va mehmondo 'stlik yo 'nalishi I-bosqich talabasi 24/3guruh

Annotatsiya : Maqolada Uchinchi Renessans tushunchasi va inson kapitalining rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritiladi. Inson kapitali mamlakat taraqqiyotining asosiy omili sifatida qaraladi va Uchinchi Renessans davrida bilimli, malakali va ma'naviy boy shaxslarni yetishtirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Mazkur maqola ana shu ikki tushuncha o'rtasidagi dialektik aloqani tahlil qiladi.

Kalit sôz: Uyg'onish davri, Yangi Özbekiston, Strategiya, jamiyat taraqqiyoti, dialektik jarayon.

Avvalo, Uchinchi Renessans — bu O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichi, unda ilm-fan, texnologiya, ma'naviyat va madaniyat yuksalishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Renessans so'zi "qayta tiklanish" degani, ya'ni O'zbekistonda hozir bilimli, tafakkurli, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan zamonaviy avlodni tarbiyalash jarayoni ketmoqda. Bu jarayon "Uchinchi Renessans" deb atalmoqda.

Inson kapitali — bu insonning bilimlari, ko'nikmalar, salohiyati va ma'naviy qadriyatlari yig'indisi. Inson kapitali qanchalik rivojlangan bo'lsa, davlat va jamiyat ham shuncha tez rivojlanadi. Zamonaviy dunyoda bilim va malaka eng katta boylik hisoblanadi.

Dialektik tahlil esa bu ikki tushuncha o'rtasidagi o'zaro bog'liqliki chuqr va har tomonlama tushunishga yordam beradi. Uchinchi Renessans davrida inson kapitali asosiy kuch sifatida ko'riladi. Chunki, rivojlangan, bilimli, iqtidorli



insonlarsiz yangi taraqqiyot bo'lmaydi. Inson kapitali rivojlansa — Uchinchi Renessans tez va samarali amalga oshadi.

Uchinchi Renessans esa insonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi: ta'lif, texnologiya, ma'naviyat. Insonlar o'z bilim va mahoratini oshirsa, mamlakat Uchinchi Renessans sari tezroq boradi. Shu bilan birga, Renessans davri esa insonlarning rivojlanishi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

"Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'navyi asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasıdir." Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan yurtimizda inson kapitali va Uchinchi Renessans juda muhim rol oynaydi va Prezidentimiz ikki jarayonni ham bir vaqtida rivojlantirish uchun dialektik tahlil asnosida ,birlashtirilgan holda chora tadbirlar olib borilmoqda.

To'rtinchidan, birinchi va ikkinchi Renessanslar jamiyatda erkin fikr yuritish mahsuli bo'lgan. YAratilgan betakror ilmiy va madaniy durdona asarlar aynan jo'shqin intellektual hayat natijasidir.Ibn Sino, Beruniy va boshqa mutazilitlar ilmiy hamjamiyat oldida eng qaltis savollar berishdan hayiqmagan. Ular dovyuraklik bilan aqidaparast, aksilratsional oqimlar vakillari bilan ochiq bahs qila bilgan va shuning evaziga ilm cho'qqilarini zabit etgan.

Uyg'onish davri, Renessans — fikr monopoliyasiga zid. U g'oyalar xilma-xilligini talab qiladi.Bugun jamiyatimizda tobora erkinlashtirish, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik va oshkorlik tamoyillari ildiz otmoqda. Bu ortga qaytmas tus olganini yana bir bor ta'kidlamoqchiman.Ommaviy axborot vositalari hukumat faoliyati haqida aholini xabardor qilish va ayni vaqtida unga xalq fikri, orzu-umidlari, noroziligini etkazish, hokimiyat shaffofligini ta'minlashda tobora faol rol' o'yynamoqda. Bu ham davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ham jamiyat



barqaror rivojining omilidir. Beshinchidan, Renessans, uyg'onish davri haqida gapirar ekanmiz, uning hal qiluvchi omillaridan biri — bu dunyoga ochiqlik va tashqi aloqalarning keng qamrovligidir.

Avvalgi Renessanslar yirik makromintaqada mushtarak madaniy, gumanitar makon vujudga kelgani bilan izohlanadi. Mintaqamizga azal-azaldan xos bo'lgan doimiy xalqaro muloqot, madaniy almashinuv xalqimizda o'ziga xos mentalitet shakllanishiga sabab bo'ldi. Uning belgilari sifatida bag'rikenglik, ksenofobiya va diniy fanatizm deyarli yo'qligi, o'zga madaniyat, dunyoqarash va yangiliklarga ochiqliknki ko'rsatish mumkin.

Inson kapitali jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy resurs hisoblanadi. Har bir davlat taraqqiyoti, avvalo, o'z fuqarolarining bilim, malaka va innovatsion fikrlash darajasiga bog'liq. Inson kapitaliga investitsiya qilmasdan, barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

"Inson kapitali davlatning ko'rmas boyligi bo'lib, u ilm, mahorat va ma'naviyat orqali iqtisodiy taraqqiyotga yo'l ochadi."^[4] Hammamiz bilamizki, rivojlanish uchun birinchi navbatda yosh kadrlarni, ta'lim tizimini kuchaytirish zarurdir. Ta'lim tizimiga kôproq investitsiya kiritish orqali inson kapitalini va renessansni rivojlanishtirish mumkin boladi.

Renessans tushunchasi faqat tarixiy davr emas, balki har bir inson va jamiyatning yangilanish, intilish va o'sish davridir. Har bir Renessans bosqichi inson tafakkurining erkinligi, bilim va ijodkorlik orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishini ko'rsatadi.

"Renessans — bu inson tafakkurining uyg'onishi va jamiyat taraqqiyotining ma'naviy ko'zgusidir."

Bugungi kunda mamlakat taraqqiyotining asosiy resursi sifatida ko'rilmoxda. Uchinchi Renessans davrida esa, ilmli, ma'naviy barkamol va innovatsion fikrlovchi yosh avlodni yetishtirish jarayoni muhim ahamiyat kasb



etmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli inqilob davrida har bir millat va davlatning kuch-qudrati nafaqat iqtisodiy yoki harbiy salohiyat bilan, balki inson kapitalining rivojlanish darajasi bilan belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalgalashuv oshirilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, Uchinchi Renessans jarayoni, inson kapitalini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi. Uchinchi Renessans — ma’naviyat va ilm-fanning uyg‘unligida mujassamdir. Uchinchi Renessans — bu ilm-fan, texnologiya, ma’naviyat va ijodkorlikning uyg‘un holda rivojlanishini anglatadi. O‘zbekiston tarixidagi birinchi va ikkinchi Renessans davrlari singari, bugungi Uchinchi Renessans ham inson tafakkurining erkinligi, bilimga chanqoqlik va madaniy yuksalish asosida shakllanmoqda. Bu jarayon har bir shaxsdan yangicha fikrlashni, bilimlarni doimiy ravishda yangilab borishni va innovatsion yondashuvni talab qiladi.

Inson kapitali — taraqqiyotning ko‘rinmas poydevoridir. Inson kapitali bugungi taraqqiyot davrida iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy boylikdir. Inson kapitali nafaqat bilim va ko‘nikmalar majmuasi, balki insonning sog‘ligi, kasbiy mahorati, innovatsion tafakkuri va ma’naviy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitaliga sarmoya kiritish — keljakni barpo etishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

Uchinchi Renessans davrining harakatlantiruvchi kuchi — bu inson kapitalidir. Bilimdon, ixtisoslashgan va ma’naviy boy insonlar O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichini yaratadi. Shu bilan birga, Renessans jarayoni esa, inson kapitali rivojlanishi uchun muhit va imkoniyatlar yaratadi. Ta’lim tizimining yangilanishi, raqamli savodxonlik, xorijiy tillarni o‘rganish, sog‘liqni saqlash tizimining takomillashuvi va yoshlar uchun grant va stipendiyalar — bularning barchasi inson kapitalini rivojlantirish vositalaridir. Shu sababli inson kapitali va Renessans o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, taraqqiyotga xizmat qiluvchi tizimlardir.



Uchinchi Renessans yoki "Yangi Renessans" deb ataladigan davr, zamonaviy jamiyatda ilmiy, texnologik va madaniy o'sishning yangi bosqichini ifodalaydi. Bu davrni hozirgi zamonning innovatsion va raqamli inqilobiga o'xshatish mumkin, chunki insoniyat yangi ilmiy kashfiyotlar, texnologiyalar va global o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Inson kapitali — bu jamiyatning o'sishiga, rivojlanishiga va iqtisodiy samaradorligiga hissa qo'shuvchi individual va ijtimoiy resurslar (ta'lim, malaka, salomatlik, tajriba va boshqalar). Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning rivojlanishi jamiyatning kelajakdagi yutuqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Dialektik Tahlil:

Uchinchi Renessans va Inson Kapitalini dialektik tahlil qilishda quyidagi qarama-qarshiliklar va ularning o'zaro aloqalarini ko'rishimiz mumkin: renessans davri insoniyatni ilmiy-texnologik yutuqlar bilan yangi cho'qqilarga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, bu davrda inson kapitalining ta'siri, ta'lim va malaka darajasining ortishi ahamiyatlari o'rin tutadi. Inson kapitalining rivojlanishi orqali yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yaratilmoqda, bu esa o'z navbatida jamiyatni yangi bosqichga olib chiqadi. Biroq, bu jarayonning o'zida jamiyatda tengsizliklar, raqobat va muammolar ham yuzaga keladi, chunki har bir insonning rivojlanish imkoniyatlari teng bo'lmasligi mumkin.

Insonning o'zi va Texnologik O'zgarishlar:

Yangi Renessans va texnologik inqiloblar insonni yangi imkoniyatlari yaratishga undaydi. Yangi bilimlar va texnologiyalar orqali har bir inson o'zini yanada rivojlantirishga intiladi. Ammo, bunday o'zgarishlar ham muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ba'zi guruhlar, ijtimoiy qatlamlar va davlatlar bu yangi texnologik o'zgarishlarni o'zlari uchun to'g'ri foydalana olmaydi. Bu, o'z



navbatida, jamiyatdagi tengsizliklarni yanada kuchaytiradi.

Inson Kapitali va Ijtimoiy Rivojlanish:

Inson kapitalining rivojlanishi jamiyatda ta'lim va malaka darajasini oshiradi, bu esa o'zgarishlarga olib keladi. Yangi bilim va texnologiyalar jamiyatning rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi. Lekin, inson kapitalining rivojlanishi faqat o'z imkoniyatlari ega bo'lganlar uchun imkoniyat yaratadi, natijada ba'zi ijtimoiy guruhlar bu imkoniyatlardan chetda qoladi.

Dialektik tahlilda, Uchinchi Renessans va Inson Kapitali o'rtasida qaramaqarshiliklar mavjud: bir tomonidan, texnologik rivojlanish va inson kapitalining oshishi yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin boshqa tomonidan, bu jarayonlar jamiyatda tengsizliklarni kuchaytirishi, ijtimoiy ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Insonning o'zgarishi va yangi imkoniyatlarga ega bo'lishi bir vaqtning o'zida rivojlanishni va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu dialektik jarayon davomida qarama-qarshi tomonlar bir-biri bilan kurashadi va natijada yangi shaklga ega bo'lgan jamiyat paydo bo'ladi. Bunday tahlil orqali biz inson kapitalining o'sishi va uchinchi renessansning rivojlanishini yanada chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Xulosa: Uchinchi Renessans va inson kapitali o'rtasidagi uzviy aloqadorlik — zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas va asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Inson kapitali — bu bilim, ko'nikma, sog'liq, ma'naviyat va ijodkorlik kabi qadriyatlarning jamlanmasi bo'lib, aynan shu boylik har bir davlatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uchinchi Renessans davri esa, bu kapitalning yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda: ilg'or ta'lim tizimi, texnologik innovatsiyalar, ma'naviy va madaniy taraqqiyot insonlarni yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.



Dialektik tahlil ko'rsatadiki, inson kapitalining rivojlanishi va Uchinchi Renessans bir-birini to'ldirib, jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishiga zamin yaratadi. Biroq, bu jarayon tengsizlik va yangi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'lim, sog'liqni saqlash va innovatsion muhitni rivojlantirish doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Uchinchi Renessans — bu nafaqat madaniy va ilmiy tiklanish, balki inson kapitalini shakllantirish, inson tafakkurining uyg'onishi va jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishning yuksak bosqichidir. Shunday ekan, har bir inson o'z bilim va salohiyatini oshirish orqali nafaqat o'z kelajagini, balki butun jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirzoyoyev - "Yangi Ozbekiston Strategiyasi".
2. E. G'aniyev — "Renessans: Qayta tiklanish va yangi uyg'onish davri".
3. Jacob Burckhardt - "Renessans va Uchinchi Renessans".
4. Clayton Christensen - "Disruptive Innovation Konsepsiysi".